

MALAKAVIY O'QUV AMALIYOT JARAYONIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TAMINOTI

*Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti "Maktabgacha ta'lim
nazariyasi va metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada malakaviy o'quv amaliyot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik ta'minoti, amaliyot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasi rivojlantirish usullari, amaliyot jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar ilmiy nazariy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: didaktik ta'minot, kasbiy kompetensiya, o'z-o'zini baholash varaqasi

Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy tayyorlash jarayonida didaktik ta'minotni samarali tashkil qilish, tarbiyachining va tarbiyalanuvchilarning faoliyatini boshqarish, bilimlarni chuqur o'zlashtirishni ta'minlashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Didaktik ta'minot deganda, inson tomonidan yaratilgan va o'quv-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan barcha moddiy resurslar, texnik vositalar, metodik ko'rsatmalar, darsliklar, o'quv qurollari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shuningdek, ta'lim maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan boshqa pedagogik resurslar tushuniladi. Didaktik ta'minotning asosiy vazifasi o'quvchilarning bilim olish faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularga mavzuni o'zlashtirishda va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda ko'maklashishdan iborat. Bu vositalar orqali ta'lim samaradorligi oshadi, mustaqil fikrlash va amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvlar rivojlanadi. Natijada, bo'lajak tarbiyachilarning zarur kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga zamin yaratiladi.

Bo'lajak tarbiyachining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik

kuzatuv va tahlil malakaviy amaliyotning samaradorligini o'lchash va tahlil qilish uchun tizimli monitoringni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak tarbiyachining amaliyot jarayonida erishgan muvaffaqiyatlarini baholash, malakaviy amaliyot jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bo'lajak tarbiyachining kasbiy kompetensiyasini shakllanishi jarayonida o'z faoliyatini baholay olish va uni doimiy takomillashtirish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Malakaviy o'quv amaliyot davomida talabalar nafaqat bilim va ko'nikmalarni mustahkamlaydi, balki o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, natijalarni baholash va ularni yaxshilash bo'yicha refleksiv yondashuvni shakllantiradi.

Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilar o'z faoliyatini baholash deganda, bo'lajak tarbiyachining o'z pedagogik tajribasiga tanqidiy va tahliliy ko'z bilan qaray olishi, yutuqlar va kamchiliklarni aniqlab, shunga qarab keyingi harakatlarini belgilay olishidir. Bu jarayonda quyidagi vosita va usullar yordam beradi:

Pedagogik kundalik yuritish: Talaba har bir ish kunidan so'ng o'z faoliyatiga oid muhim jihatlarni yozib boradi

Refleksiya savollari: "Bugungi mashg'ulotda nima yaxshi bo'ldi?", "Qanday qiyinchilik yuzaga keldi?", "Nimani boshqacha qilish mumkin edi?" kabi savollar asosida o'zini tahlil qilish.

Video yoki audio yozuvlar asosida tahlil: Faoliyat yozib olinib, ustoz va talaba tomonidan birgalikda muhokama qilinadi.

O'z-o'zini baholash varaqalari: Maxsus mezonlarga asoslangan ballik baholash tizimi orqali talaba o'z faoliyatini raqamli tahlil qiladi.

Malakaviy o'quv amaliyot jarayonida bo'lajak tarbiyachilar o'z faoliyatini baholash bilan birga faoliyatni takomillashtirish yo'llarini ham o'rganishadi. Bo'lajak tarbiyachi o'z faoliyatidagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlaganidan so'ng, ularni takomillashtirish uchun quyidagi strategiyalarni qo'llashi mumkin: Metodik tahlil asosida yangi yondashuvlarni joriy qilish, ustoz-rahbar bilan fikr almashish, ilg'or

tajribani o'rganish, innovatsion yondashuvlarni sinovdan o'tkazish, fikr-mulohazalarni yig'ish.

Bo'lajak tarbiyachining reflektiv fikrlashi shakllangan sari u o'z faoliyatini faqat baholash emas, balki rivojlantirish uchun yo'nalgan tahliliy yondashuvni egallaydi. Bu esa unga o'zini doimiy ravishda o'stirishga, yangilikka ochiq bo'lishga, pedagogik qarorlarni ongli qabul qilishga, bolalarning rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsata olishga imkon yaratadi. Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachining o'z faoliyatini baholay olishi va uni takomillashtirishga intilishi uning kasbiy kompetensiyasi shakllanishida hal qiluvchi omillardan biridir. O'z-o'zini baholash va reflektiv yondashuv orqali talaba o'z faoliyatining sifatini nazorat qiladi, tajriba asosida yangi metodlarni qo'llab, pedagogik yondashuvlarini doimiy ravishda boyitadi. Natijada esa bo'lajak tarbiyachilarda malakaviy o'quv amaliyot jarayonida o'z-o'zini baholash va o'z faoliyatining sifatini nazorat qila olish ko'nikmasi rivojlanadi.

Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda bo'lajak tarbiyachilar uchun didaktik ta'minotning ta'minlanganligi, malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan pedagogic yondoshuvlar va ta'lim tamoyillarini to'g'ri tanlanganligi, bo'lajak tarbiyachilar o'rtasida o'zaro tajriba almashish, seminarlar, konferensiyalar va amaliy mashg'ulotlar orqali malakaviy o'quv amaliyotning samaradorligini oshirish mumkin. Ushbu jihatlar bo'lajak tarbiyachilar uchun o'z kasbiy tajribalarini o'stirish, yangi pedagogik texnikalar va metodlardan foydalanish imkoniyatlarini yaratadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.y

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”
4. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr 2022 yil 4 fevral
5. Ramazonova, B. (2023). PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCES OF FUTURE EDUCATORS DURING THE PROCESS OF QUALIFIED EDUCATIONAL PRACTICE. *Science and innovation*, 2(B4), 228-230.
6. Sadriddinovna, R. B. (2022). FUNDAMENTALS OF DEVELOPMENT OF STUDENTS'LEARNING COMPETENCIES IN THE COURSE OF PEDAGOGICAL PRACTICE. *Thematics Journal of Education*, 7(4).
7. Ramazonova, B. (2025). Malakaviy o‘quv amaliyot jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik ta’minoti. *МАКТАБГАЧА VA МАКТАВ ТА’ЛИМИ JURNALI*, 3(3).
8. Рамозонова, Б. С., & Абдумуминова, Д. (2023, March). ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ. In *E Global Congress* (No. 3, pp. 1-5).